# YAPON TILSHUNOSLIGIDA YAPON SHEVASHUNOSLIK TARAQQIYOTI

**Qodirova Mohigul Ilhom qizi**
(SamDChTI 2-kurs magistiranti)

**Annotation**: This article is about Japanese dialectology, which is known to consist of the four main islands of Japan. Dialect is also divided into four parts:Eastern dialect; Canto dialect; Western dialect; Kyushu dialect.

**Key words and expressions:** Language, dialect, dialect, eastern dialect, western dialect, Honshu dialect, kanto dialect, kyushyu dialect

Har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo`lib, u me'yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta'rifni berish mumkin: "Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan ma'lum qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so`z ustalari tomonidan sayqal berilgan tildir."

"Dialekt" so`zi grekcha so'z bo`lib, "sheva" degan ma'noni anglatib, ma'lum til xususiyatlari jihatidan o`xshash bo`lgan shevalar yig`indisini bildiradi.

Yapon tilida yuqoridagi atamalarga teng keladigan ~弁(ben) va 方言 (hougen ) tushunchalari mavjud bo'lib, yapon tilshunosligida ham ushbu
tushunchalarni farqlamaslik, ajratmaslik holatlari kuzatiladi.

Yapon tilida dialektlarning ko'pligi bois ularning o'xshash va noo'xshash tomonlari o'rganilib ularni to'rtta asosiy katta hududiy qismlarga bo'lib chiqilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1) Sharqiy dialekt;
2) Kanto dialekti;
3) G'arbiy dialekt;
4) Kyushu dialekti.

Bu dialektlarni tashkil qiluvchi shevalarni hamda ularning hududiy joylashuv tartibini ko'rib chiqamiz:

Sharqiy dialekte - Yaponiyaning shimoliy-sharqiy hududlaridagi shevalarni o'z ichiga olib, Xokkaydodan Aichikengacha bo'lgan hududlarni qamrab oladi.Bu dialektni quyidagi hududiy shevalar tashkil etadi:

Touhoku ben (東北弁) . Bu sheva Honshu orolining shimoliy-sharqiy hudud nomi bilan ataladi. Yaponiya shimolida shevalar yapon adabiy tilidan farq qiladi. Tuzulishi va ishlatilishi o'xshash bo'lgan quyidagi hududiy shevalarni o'z ichiga oladi:

Tsugaru shevasi (Aomori prefekturasining g'arbiy qismida tarqalgan);

- Nambu shevasi (Aomora prefekturasining sharqiy qismi, hamda Ivate prefekturasining shimoliy qismida tarqalgan);
- Shimakita yarim orolida tarqalgan sheva;

- Ivate shevasi-Ivate prefekturasi nomi bilan atalib, prefekturaning shimoliy-janubiy qismida tarqalgan;
- Morioka shevasi-Ivate prefekturasining Morioka shahrida tarqalgan;
- Akita shevasi-Akita prefekturasida tarqalgan;
- Shonai-eski hududiy shevasi Yamagata prefekturaning shimoliy g'arbiy qismida tarqalgan;
- Janubiy-Touhoku shevasi;
- Sendai shevasi-Miyagi prefekturasida tarqalgan;
- Kesen shevasi-Ivate shahrining janubiy-sharqiy qismida tarqalgan;
- Yamagati yoki Murayama shevasi-Yamagata prefekturaning markazida tarqalgan;
- Yonjava yoki Okitama shevasi-Yamagata prefekturaning janubiy qismida tarqalgan;
- Mogami yoki Shinjo shevasi-Yamagata prefekturaning shimoliy sharqiy qismida tarqalgan;
- Fukushima shevasi-Fukushima prefekturaning markaziy qismida tarqalgan;
- Aijyu shevasi-Fukushima prefekturaning g'arbiy qismida tarqalgan;
- Hokkaido shevasi- shu prefektura nomi bilan ataladi.

Kanto dialekti ham katta hududni egallab, bir qancha hududiy shevalarni o'z ichiga oladi:

- G'arbiy Kanto;
- Tokio shevasi;
- Yamanochi shevasi;
- Shitamachi shevasi;
- Saitama shevasi;
- Kanagava shevasi;
- Bosyu shevasi;
- Sharqiy kanto shevasi;
- Ibaraki shevasi;
- Tiba shevasi;

Tokai-tosan dialekti uch turga bo'linadi:

- Nagano-Yamanasi-Shijuoka;
- Echigo;
- Gifu-Aichi.

Bu dialektlar o'z navbatida yana mayda hududiy shevalarga bo'linadi:

Nagano-Yamanasi-Shijuoka hududiy dialekti bir necha mayda hududiy shevalarni o'z ichiga oladi:

- Nagano yoki Shinshyu shevasi. Nagano prefekturasini o'z ichiga olib, prefekturada tarqalgan quyidagi shevalarga bo'linadi:
- Okushin (Nagona prefekturasining shimoliy qismi);
- Xokushin (Okushin shevasining janubida tarqalgan);
- Toshin (prefekturaning sharqiy qismida tarqalgan);
- Tyushin (markaziy prefekturada tarqalgan);
- Nanshin (prefektura janubida tarqalgan).
- Iju (Iju yarimoroli-Shijuoka prefekturasining sharqiy qismi):
- Enshyu (Shijuoka prefekturasining g'arbiy qismi);

- Yamanashi prefekturasining shevasi.

Echigo dialekti. Niigata prefekturasini o'z ichiga olib, prefekturada tarqalgan quyidagi shevalarga bo'linadi:

- Niigata shahri shevasi;
- Nagaoka shevasi (markaziy Niigata prefekturasi);

Gifu-Aichi dialeti. Gifu hamda Aichi prefekturasini o'z ichiga olib, prefekturada tarqalgan quyidagi shevalarga bo'linadi:

- Mino (Gifu prefekturasining janubiy qismi);
- Hida (Gifu prefekturasining shimoliy qismi);
- Chita (shahar nomi bilan ataladi);
- Nagoya (Nagoya shahri atrofi).
- Mikava (Aichi prefekturasining sharqiy qismi):

G'arbiy dialekt-Yaponiya g'arbida joylashgan, Kinkidan Kyushu hattoki Okinavagacha bo'lgan hududiy shevalarni o'z ichiga oladi. Quyida ularning nomi keltirilgan:

1) Hokuriku dialekti;
2) Kinki yoki Kansai dialekti;
3) Shikoku dialekti;
4) Iyo dialekti.

Bu shevalar o'z navbatida yana mayda hududiy shevalarga bo'linadi:

1) Hokuriku dialektini quyidagi hududiy shevalar tashkil qiladi:

- Kaga shevasi (Ishikava prefekturasining janubiy qismi)
- Noto (Ishikava prefekturasining shimoliy qismi);
- Toyama yoki Etyu (Toyama prefekturasi);

2) Kinki yoki Kansai dialekti ham quyidagi shevalarga bo'linadi:

- Kansai shevasi(Kansai prefekturasini o'z ichiga oladi);
- Kioto hududiy shevasi:
- Goshyo shevasi (eski Kioto dialekti);
- Muramachi shevasi (eski Kioto dialektining savdo aloqalaridagi ko'rinishi);
- Gion shevasi (Giona hududi);
- Osaka hududiy shevasi:
- Kobe shevasi (Kobe shahri);
- Nara yoki Yamato shevasi (Nara shahri);
- Oku-yoshino yoki Tojukava shevasi (Nara prefekturasining janubiy qismi);
- Tamba shevasi (Nara prefekturasining markazi va Hyogo prefekturasining
- sharqiy qismi);
- Banshyu shevasi (Hyogo prefekturasining janubiy-g'arbiy qismi);
- Shiga yoki Omi shevasi (Shiga prefekturasi);
- Vakayama yoki kishyu shevasi (Vakayama prefekturasi va Mie
- prefekturasining janubiy qismi);
- Ise ( Mie prefekturasining markaziy qismi);
- Shima shevasi ( Mie prefekturasining sharqiy qismi);

- Iga shevasi ( Mie prefekturasining g'arbiy qismi);
- Vakasa shevasi (Fukui prefekturasining janubiy qismi);

3) Tyugoku dialekti ham quyidagi shevalarga bo'linadi:
   - Ivami (Hiroshima prefekturasining janubiy qismi);
   - Bingo (Hiroshima prefekturasining sharqiy qismi):
   - Tadzima (Hyogo prefekturasining shimoliy qismi);
   - Tango (Kiota prefekturasining shimoliy qismi).
4) Umpaku dialekti ikki turga bo'linadi:
   - Ijumo (sharqiy shimane);
   - Hoki yoki Yonago ( g'arbiy Tottori).
5) Shikoku dialekti quyidagi shevalarga bo'linadi:
   - Tokushima yoki Ava;
   - Hata (g'arbiy Koti);
6) Iyo yoki Ehime dialekti asosan qishloq joylarda ishlatiladi.

Kyushyu dialekti-Yaponiyaning janubida joylashgan quyidagi hududiy shevalarga bo'linadi:

- Honiti shevasi (Bujin (g'arbiy Fukoku va shimoliy Oiti), Bungo (janubiy Oiti) va Hyuga (Miyajaki hududi);
- Hitiku (Hijen (Saga va Nagasaki), Higo (Kumamoto), Tikujen (sharqiy Fukuka) va Tikugo (janubiy Fukuoka);
- Satsugu (g'arbiy va sharqiy Kagoshima);
- Ryukyu (Kagoshima va Ryukyu prefekturasida tarqalgan). U quyidagi
- mayda hududiy shevalarga bo'linadi:
- Amami shevasi;
- Miyako shevasi;
- Okinava shevasi;
- Kunigama shevasi;

Xullosa qilib aytganda, yuqorida ko'rsatilgan har bitta prefekturasining o'z tili ya'ni o'z dialekti mavjud. Albatta ularni farqlash uchun ma'lum bir qoidalar mavjud.` Masalan: umumiy til (kyoutsugo) da nega ma'nosidagi 「なぜなのか(nazenanoka)」so'zi Kansaida「ナンデヤネン(nandeyanen)」mazali ma'nosidagi「おいしい (oishii)」Kyushyuda「ウマカ-(umaka)」, xayrli kech ma'nosidagi「こんばんは(konbanwa) 」so'zi Toxokuda「オバンデス(obandesu) 」[1] kabi shaklda ishlatiladi.

Adabiyotlar:

http://hougen.atok.com/,

朝倉邦造(2011・2012)「日本語文章・文体・表現辞典」株式会社朝倉書店。ISBN 978－4－254－51037－9C3581

稲賀敬二・竹盛天雄・森野繁夫(1992)「カラー版 国語便覧」教育

[1] 大西拓一郎「現代方言の世界」2008

図書出版 第一学習社。ISBN4-8040-2094-2

井上史雄・鑓水兼貴『辞典 新しい日本語』東洋書林 ISBN 4887215320